

**MUHAMMAD SODIQ QOSHG'ARIY ASARLARIDA
MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYANING PEDAGOGIK ASOSLARI**

Moxira Niyozqulova Nuraliyevna

ShDPInstitutining Pedagogika va nazariyasi yo'nalishi magistranti

Ilmiy rahbar: **Gulnoz Bahodirova Kamolovna**

ShDPInstitutining Pedagogika fanlar bo'yicha falsafa

doktori dotsent

mokhiran6@mail.com

Anotatsiya: Ushbu maqola Muhammad Sodiq Qoshg'ariy asarlaridagi tarbiyaviy qarashlarining yosh avlodga yetkazish va ma'naviy-axloqiy ahamiyati haqida ko'rib chiqamiz.

Abstract: This article examines the spiritual and moral significance of conveying educational views to the younger generation in the works of Muhammad Sadiq Kashgari.

Аннотация: В данной статье рассматривается духовное и нравственное значение передачи образовательных взглядов молодому поколению в произведениях Мухаммада Сади́ка Кашга́ри.

Kalit so'zlar: pedagogika, “Odob as-solihin”, “Tazkirai Azizon”, “Zubdat almasoyil”, “Qiyofat al-bashar” g'oya, qadriyat, ma'rifat, qarashlar.

Muhammad Sodiq Qoshg'ariy 1740-yilda Qashqarda dunyoga kelgan. U tarixchi, faylasuf, tilshunos olim, adib va shoir. Qashqardagi “Sochiya” madrasasida dunyoviy va diniy ilmlar, arab, fors tillari, sharq mumtoz adabiyotini mukammal egallagan. Muhammad Sodiq Qoshg'ariyning qarashlari o'z davri uchun muhim bo'lgan ta'lim-tarbiya, shaxsni odob-axloqli

qilib tarbiyalash, ma'rifatni keng yoyish va dunyoqarashni rivojlantirish g'oyalariga asoslanadi. Uning tarbiyaviy qarashlari "Odob as-solihin", "Tazkirai Azizon", "Zubdat almasoyil", "Qiyofat al-bashar" singari asarlarida o'z aksini topgan, bunda insonning axloq-odob, tarbiyaviy qoidalar va ma'rifatli bo'lishi zarurligi ta'kidlanadi. Muhammad Sodiq Qoshg'ariyning «Odob as-solihin» («Yaxshi kishilar odobi») asari kundalik turmushimizda har kuni har daqiqada bilish zarur bo'lgan odob xulq-odob qoidalarining majmuidir. Muhammad Sodiq Qoshg'ariy "Odob as-solihin" asarida, kasal holini so'rash, ta'ziya va musibat odoblari haqida ham fikr yuritadi. Ushbu holatlarda amal qilinadigan qoidalar mohiyatidan xabardor bo'lish ham har bir kishi uchun foydadan holi bo'lmaydi. Asarda, shuningdek, ayol kishining oiladagi o'rni va burchlari yuzasidan ham bir qator fikr-mulohazalar bayon etiladi. Muhammad Sodiq Qoshg'ariyning nuqtai nazariga ko'ra, ayol kishining oiladagi eng muhim burchi quyidagilardan iboratdir: oilada er va xotinning ahilligi va oldilaridagi vazifalarni belgilab o'tilgan, xotin erning ruhsatisiz ko'chaga chiqmasligi va begona kishini uyga olib kirmasligi, er xursand bo'lganda xursand bo'lishi va hafa bo'lgan vaqtda xafa bo'lishi haqida. Bemorlarni ziyorat qilish qarindosh urug', qo'ni-qo'shni, yoru birodarlar uchun farz ekanligi haqida, so'z yuritilgan.

Asarning birinchi bobi, izn so'rash va salomlashish, avvalgi odob – har kim bir kishining eshigiga borib kirishni istasa, avvalo u kishiga o'zining kelganini eshik orqasidan ohista taqillatish yo yutalish tariqasida bildiradi.

Ikkinchi – agar ovoz chiqsa, eshikning orqasidan salom berib: "Ichkariga kiraymi?" deb so'raydi Bunday izn so'rash uch martabagachadir. Har izn so'raganda to'rt rakat namoz o'qishlik miqdorida kutib turiladi.

Uchinchisi – agar uch bora chaqirganda ham uy egasining ovozi chiqmasa va kirishga izn berilmasa, kutib turilmay eshikdan tezda qaytiladi.

To'rtichi – agar uy egasi: “Siz kim bo'lasiz?” deb so'rasa, javobiga otini aytadi, ammo gumondor qilib: “Men sizning oshnangizman yo do'stingizman”deyilmaydi.

Beshinchi – agar uy egasi hamrohligida borilgan bo'lsa, yuqoridagi tartiblar bilan emas, sharoit bo'yicha ish qilinadi. Asarning ikkinchi bobi uxlash, yo'l yurish va otga minish odoblari, uchinchi bobi suhbat ahlining odobi va sharoiti, to'rtinchi bobi eru xotin va hammom odoblari, kasal o'rish, taziya ahli musibat, ziyofat va yeb ichish, safarning odobi va unga taalluqli narsalar odobi qonun-qoidalarini bayon qilingan.

Asar yetti bobdan iborat, muqaddimasida uning maqsadi sifatida insonga yaxshi xulq egallashi zarurligi ta'kidlanadi va u odob qoidalarini egallab olmasa va yaxshi xulq bilan odobli va toza bo'lmasa, nafaqat o'ziga, balki butun dunyoga yomonlik tarqatadi, deydi va quyidagi masnaviyni keltiradi: Adabsiz na o'zi uchun yomonlik qiladi, Balki butun dunyoga o't qo'yadi. “Odob as-solihin” asarida botiniy va zohiriy qoidalar haqida ham fikr borgan. Bugungi kunda maktabga bormaydigan bolalar dunyo miqyosida juda ozchilikni tashkil etadi, shuning uchun ham ertangi kelajagimiz bugungi pedagogikamizning beradigan mahsuliga bog'liq. Shu sababdan allomaning ta'lim tarbiyaga oid qarashlarini keng miqyosda tushunchalar olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Yoshlarni insonparvarlik ruhida tarbiyalamay turib, ularni ma'naviy kamolotga yetkazish, jamiyatni ijtimoiy rivojlanishini ta'minlash mumkin emas. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, ma'naviy yuksak e'tiqodga ega bo'lgan umuminsoniy fazilatlar ruhida shakllantirish, yuqori malakali mutaxassis qilib yetishtirish bugungi kunning dolzarb muammosi sanaladi.

Tarbiya oiladan boshlanishi va buning uchun oilaviy muhitni yaxshilash yoshlarimizni bo'sh vaqtini qoldirmasdan turli xil to'garaklarga yuborish, kitoblar bilan oshno qilish yoshlar tarbiyasida muhim o'rin egallaydi. Buning

uchun ota – onalarning o‘zida milliy qadriyatlarga nisbatan munosabati o‘zgarmog‘i lozim. Milliy qadriyatlar va milliy o‘zlikni anglashda, xalqning ma’naviy merosidan, ota-bobolarimizning pand-nasihatlari, tajribalari asosida eng yaxshi va oliyjanob an’analar ruhida tarbiyalash, ularning dono fikrlari, turmush saboqlari davrlar g‘alviridan o‘tib, saralanib bizgacha etib kelgan o‘gitlarini ongiga, dunyoqarashi va shuuriga sindirib borilmog‘i darkor. Shu bilan birga bolalarni xalq an’analariga o‘rgatishi ota-onalarining majburiy vazifasidir. Ayniqsa hozirgi zamonaviy ta’lim tizimiga yoshlarga urf-odatlar, ta’lim va tarbiyaning muhim jihatlarini yanada chuqur o‘rgatishimiz zarur. Albatta tarbiya avvalambor oilada shakllanadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish zarurki jamiyatimizda ta’lim tarbiya nazariyasi birinchi o‘rinda bo‘lishi, bu bizning yutug‘imizdir. Ajdodlarimizning pedagogic qarashlarini o‘rganib uni hayotga tadbiq etish, albatta yosh o‘quvchilarimiz ongini umuminsoniy tuyg‘ularni shakllanishida yanada ijobiy natijalar beradi. Yurtboshimiz ta’kidlaganidek, “Maktab ta’limini rivojlantirish biz uchun buyuk umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga aylanishi zarur”.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. Muhammad Sodiq Qoshg‘ariy. Yaxshi kishilar odobi. – T.: Yangi asr avlodi, 2002.
2. Abdullayeva D. N. “Qadriyatlar asosida O‘quvchilarni ijtimoiylashtirishda “Odob as-solihin asarining o‘rni”. Internetional Scientific Conefence .Aprel. 2022
3. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” T.: “Davlat ilmiy nashriyoti” 2013
4. Ziyo.uz